1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Kiritma gap yig‘iq bo‘lsa, ……. bilan ajratiladi, agar yoyiq bo‘lsa, ……. yoki……. bilan ajratiladi.
   Nuqtalar o‘rniga qaysi tinish belgisi qo‘yiladi?
   A. Ikki nuqta, qavs
   B. Vergul, tire yoki qavs
   C. Tire, vergul yoki tire
   D. Qavsa, ikki nuqta yoki tire

2. Agar to‘ldiruvchi tushum kelishigi qo‘shimchasi –ni bilan ifodalanib, kimni? nimani? so‘roqlariga javob bo‘luvchi to‘ldituvchi qanday to‘ldiruvchi hisoblanadi?

A. Vositali va vositasiz to‘ldiruvchi
B. To‘ldiruvchi
C. Vositali to‘ldiruvchi
D. Vositasiz to‘ldiruvchi

3. Biror yig‘ilish, kecha va tadbirga taklif qilish mazmunida yoziladigan rasmiy qog‘ozi, u har xil shaklda yozilishi mumkin.

   Berilgan ta’rif qaysi ish qog‘ozi haqida?

A. Xabarnoma
B. Taklifnoma
C. E’lon
D. Maktub

4. –chi, -a(ya), -ku, -da, -u(-yu) kabi yuklamalar ……..; -gina(-kina, -qina), -mi kabi yuklamalar …….. ; faqat, ham kabi yuklamalar …….. yoziladi.

   Nuqtalar o‘rniga mos keluvchi javobni toping.

A. Qo‘shib, ajratib, chiziqcha bilan
B. Chiziqcha bilan, qo‘shib, ajratib
C. Ajratib, qo‘shib, chiziqcha bilan
D. Chiziqcha bilan, ajratib, qo‘shib

5. So‘z, so‘z birikmalari va gaplarni teng va tobe munosabatda bog‘lashga xizmat qiluvchi yordamchi so‘zlar ……. deyiladi.

A. Ko‘makchilar
B. Yuklamalar
C. Bog‘lovchilar
D. Ko‘makchilar va bog‘lovchilar

6. Obro‘, parvo, mavqe, mavzu, avzo kabi so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda qanday fonetik o‘zgarish sodir bo‘ladi?

A. Tovush ortishi
B. Tovush almashishi
C. Tovush tushishi
D. Hech qanday fonetik o‘zgarish ro‘y bermaydi

7. –don, gich, -k, -q, -m, -im, -ma. Ushbu qo‘shimchalardan qanday otlar yasaladi?

A. O‘rin-joy otlari
B. Shaxs otlari
C. Narsa—buyum otlari
D. Bu qo‘shimchalardan otlar yasalmaydi.

8. Yog‘och o‘ymakorligining 3 ta yo‘nalishi mabjud bo‘lib, bular …. , ….. va…… maktablaridir.
Nuqtalar o‘rniga shaharlar nomini to‘g‘ri joylashtiring.

A. Toshkent, Xiva, Qo‘qon
B. Toshkent, Buxoro, Samarqand
C. Tosjhkent, Xiva, Marg‘ilon
D. Toshkent, Qo‘qon, Urganch

9. Navoiy GRES, “Navoiyazot”, “Nurotamarmar” ishlab chiqarish majmualari respublikamizning qaysi viloyatida joylashgan.

A. Samarqand
B. Navoiy
C. Toshkent
D. Namangan

10. Balli // mard o‘g‘lonlar//

Berilgan gapda // belgisi o‘rniga qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

A. Vergul, nuqta
B. Faqat vergul
C. Vergul, undov
D. Tire, undov

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Yo‘qni yo‘q deydi, borni bor deydi.

Gapda to‘ldiruvchi qanday so‘z bilan ifodalanganligini va turini toping.

A. Modal so‘z bilan, vositali to‘ldiruvchi
B. Modal so‘z bilan, vositasiz to‘ldiruvchi
C. Sifat bilan, vositasiz to‘ldiruvchi
D. Sifat bilan, vositali to‘ldiruvchi

12. Gaplarning kesimi III-shaxs majhul nisbatdagi fe’llar *bo‘ladi*, *bo‘lmaydi* so‘zlari, -mas qo‘shimchali so‘z, harakat nomidan keyin *kerak*, *zarur*, *lozim*, mumkin so‘zlarini keltirish orqali ifodalanadi.

Ushbu ta’rif qanday gaplarga berilgan?

A. Shaxsi topilmas gaplar
B. Shaxsi umumlashgan gap
C. So‘z-gaplar
D. A va B javoblar to‘g‘ri

13. Tinglovchiga qaratilib, biror ish-harajatni bajarishga undaydigan ma, mang, qani, marhamat, xo‘sh kabi so‘zlar so‘z-gaplarning qaysi turiga kiradi?

A. Tasdiq so‘z-gaplar
B. Undov so‘z-gaplar
C. Taklif so‘z-gaplar
D. Modal so‘z-gaplar

14. Insonlarning diqqatini tortish, jonivorlarni haydash chaqirish va to‘xtatish uchun qo‘llaniladi. Ular yakka, juft va takrorlangan holda keladi.

Berilgan qoida qaysi so‘zlar haqida?

A. Kirish so‘zlar
B. Taqlid so‘zlar
C. Modallar
D. Undovlar

15. 1. Men do‘stim bilan kutubxonaga bordim.
2. Darsdan keyin maktab hovlisiga to‘plandik.
Berilgan gaplardagi ko‘makchi bilan kelgan so‘z qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelgan?
A. 1-gapda hol, 2-gapda to‘ldiruvchi
B. Ikkala gapda ham to‘ldiruvchi
C. Ikkala gapda ham hol
D. 1-gapda to‘ldiruvchi, 2-gapda hol

16. Osmonlarda uchganlar,
Oltin saroy qurganlar.
“Ne beray?” – deb turganlar,
Bolaga kitob bering.
Ushubu misralar bilan boshlangan she’r muallifini toping.

A. Sirojiddin Sayyid
B. Zulfiya
C. Zulfiya Mo‘minova
D. Halima Xudoyberdieva

17. *Qaysi modal so‘zlar so‘z-gaplar sifatida qo‘llanishi ham mumkin?
A. Albatta, shubhasiz, haqiqatdan ham, xo‘p, mayli
B. Albatta, bo‘pti, mayli, to‘g‘risi
C. Avvalo, aytishlaricha, shuningdek, darhaqiqat
D. Fikrimcha, xullas, mayli, albatta

18. Fe’llarning boshqa vazifalarni bajarishga xoslangan shakllari ham mabjud bo‘lib, ular vazifaviy shakllar deyiladi. Fe’llarning vazifa shakllariga qaysilar kiradi?

A. Sof fe’l, ravishdosh
B. Harakat nomi, sifatdosh, turdosh
C. Harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh
D. Sifatdosh, ravishdosh, vazifadosh

19. Totli, qisqa, keng, chuchuk, saxiy, qo‘pol, nordon, enli. Sifatlarga berilgan to‘g‘ri hukmni toping.

A. Ikkita maza-ta’m, ikkita hajm-o‘lchov, ikkita harakter-xususiyatni bildiruvchi sifatlar berilgan.
B. Uchta maza-ta’m, uchta hajm-o‘lchov, uchta xaraker-xususiyatni bildirgan sifatlar berilgan.
C. Uchta maza-ta’m, uchta hajm-o‘lchov, ikkita xarakter-xususiyatni bildiruvchi sifatlar berilgan.
D. Uchta maza-ta’m, ikkita xajm-o‘lchov, uchta xarakter-xuxusiyatni bildiruvchi sifatlar berilgan.

20. Shaxs otlari yasovchi qo‘shimchalar berilgan qatorni toping.

A. –paz, -shunos, -soz, -dor
B. –chi, -kor, bon, -iy
C. –gar, kash, -dosh, -lab
D. -shunos, -bon, dosh, -lab

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. Kirirtma gaplar juda keng qo‘llalandigan turini toping.

A. Lirik
B. Dramatik
C. Epik
D. Liro-epik

22. Ishonch, gumon, afsus, tasdiq, inkor, mansubligi, aloqadorligi, ahamiyatliligi darajasi, qo‘shimcha axborot yoki izoh kabi ma’nolarni ifodalovchi so‘z va birikmalar qanday bo‘lak hisoblanadi?

A. Kirish bo‘laklar
B. Ajratilgan bo‘laklar
C. Ikkinchi darajali bo‘laklar
D. Izohlovchi bo‘laklar

23. Vatan – ona so‘zi naqadar laziz. Ushbu gapda tire nima uchun qo‘llangan?
A. O‘xshatish va xoslik ma’nolarini bildirgan izohlovchi va izohlanmish o‘rtasida tire qo‘yiladi
B. Ega va ot kesim o‘rtasida tire qo‘yiladi
C. Qiyoslash ma’nosini bildirgan so‘z borligi uchun tire qo‘yilgan
D. Ushbu gapda tire noto‘g‘ri qo‘llangan.

24. 1. Shamol gul hidlarini atrofga taratdi.
2. Yaxshilar ko‘paysin, yomon qolmasin.
3. Ular to‘garak mashg‘ulotlariga muntazam qatnashar edilar.
4. Ikkovimiz biroz aylandik.
5. O‘qish boshlandi.
6. Ko‘plar qatnashdi.
7. Bor-boricha, yo‘q-holicha.
8. Uqqan o‘zar-, uqmagan to‘zar.
9. uning yuziga oyoq qo‘yish axloqimizga zid.

Berilgan gaplarda ega qanday so‘zlar bilan ifodalanganligiga mos bo‘lgan javob toping.
a. Ot bilan.
b. Sifat bilan
d. Olmosh bilan
e. Son bilan
f. Harakat nomi bilan
g. Ravish bilan
h. Modal so‘z bilan
i. Sifatdosh bilan
j. Ibora bilan

A. 1-a, 2-b,3-d, 4-e, 5-f, 6-g, 7-h, 8-i, 9-j
B. 1-a, 2-b, 3-d, 4-e, 5-f, 6-h, 7-g, 8-i, 9-j
C. 1-f, 2-b, 3-d, 4-e, 5-a, 6-h, 7-g, 8-j, 9-i
D. 1-a, 2-g, 3-b, 4-f, 5-e, 6-b, 7-h, 8-g, 9j

25. 1. Sevara va Aziza maktabga kelishdi.
2. Aytilgan vaqtda hamma keldi, biroq sardor kelmadi.
3. Maktabga ba’zan ukam, ba’zan esa dugonam bilan boraman.

1-gapda biriktiruv bog‘lovchisi qatnashgan
2-gapda zidlov bog‘lovchisi qatnashgan.

3-gapda ayiruv bog‘lovchisi qatnashgan.
1 va 3-gaplarda teng bog‘lovchilar qatnashgan.
3-gapda 3 ta yordamchi so‘z qatnashgan.
1 ta gapda bog‘lovchi takror holda qo‘llangan.
Ushbu gaplar haqidagi hukmlarning nechtasi to‘g‘ri?

A. 3 tasi to‘g‘ri
B. 4 tasi to‘g‘ri
C. 5 tasi to‘g‘ri
D. Hammasi to‘g‘ri

26. Agar, zero, ya’ni, shuning uchun, agarda, -ki (-kim), chunki garchi.
Bog‘lovchilar haqidagi to‘g‘ri hukmni toping.

A. Agar, agarda, garchi – shart ma’nosoni, chunki, -ki(-kim), - sabab ma’nosini, shuning uchun, zero ya’ni – aniqlov ma’nosini ifodalaydi.
B. Chunki, shuning uchun, zero – aniqlov ma’nosini, agar, agarda, garchi - sabab ma’nosini, ya’ni –ki (-kim) – shart ma’nosini ifodalaydi.
C. Chunki, shuning uchun, zero – sabab ma’nosini agar, agarda, garchi – shart ma’nosini agar, agarda, garchi – shart ma’nosini, ya’ni –ki (-kim) – ayiruv ma’nosini ifodalaydi.
D. Chunki, shuning uchun, zero – sabab ma’nosini, agar, agarda, garchi –shart ma’nosini, ya’ni, -ki (-kim) aniqlov ma’nosini ifodalaydi.

27. 1. Dalalarda boshlandi ish
Boshlandi ijod va tashvish.
2. Partalarda ikkitadan o‘tirildi.
3. Darsdan keyin xonalar tozalandi.
4. Nurga to‘ldi dara, to‘ldi soy,
Nur yog‘ildi qorong‘i jarga.
5. Respublikamizda kata yangilanishlar yuz bermoqda.

Fe’l nisbatlari haqidagi to‘g‘ri javobni belgilang.

A. 1-4-5 gaplar aniq nisbat, 2-3 gaplarda majhul nisbat
B. 1-2-3-4-gaplarda o‘zlik nisbat, 5-aniq nisbat
C. 1.3.5-gaplar majhul nisbat, 2-4-gaplar o‘zlik nisbat
D. 1-4-gaplar o‘zlik nisbat, 2-3-gaplar majhul nisbat, 5-gap aniq nisbat

28. Belgili qo‘llanganda aniq voqealarga, belgisiz qo‘llanganda esa umumiy mavhum narsa hodisalarga doir harakatni ifodaaydi.

Bu ta’rif qaysi kelishik qo‘shimchasi haqida?

A. Jo‘nalish kelishigi
B. Tushum kelishigi
C. O‘rin-payt kelishigi
D. Chiqish kelishigi

29. Metroning uchinchi – Yunusobod yo‘nalishi nima maqsadda ishga tushirilgan?
A. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 5 yilligiga tuhfa qilish maqsadida
B. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligiga tuhfa qilish maqsadida
C. Yunus rajabiy xotirasini ababdiylashtirish maqsadida
D. To‘g‘ri javob berilmagan.

30. Sifatdoshlar otlashganda, otlarga xos qanday qo‘shimchalarni olib keladi?
1- Erkalash, kichraytirish qo‘shimchalarini
2- Egalik qo‘shimchalarini
3- O‘rin-joy otlarini hosil qiluvchi qo‘shimchalar
4- Kelishik qo‘shimchalari
5- Ko‘plik qo‘shimchalari
6- Shaxs-son qo‘shimchalari
7- Narsa otini yasovchi qo‘shimchalar
8- Shaxs otini yasovchi qo‘shimchalar
A. 1.2.3
B. 2.4.5
C. 3.5.7
D. 4.6.8